



“ILM - FAN VA INNOVATSION YUTUQLARNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI”

**Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi**

"SCIENCES" OOO

**“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni
rivojlantirishning dolzarb muammolari”
Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi № 13.**

**«Актуальные проблемы развития науки и
инновационные достижения»
Республиканская научно-практическая
конференция № 13.**

**Republican scientific-practical conference "Actual
problems of development of science and innovative
achievements" № 13.**

Toshkent-2025



“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari”

УУК 001 (062)

КБК 72я43

“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” [Toshkent; 2025]

“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari” mavzusidagi respublika 13-son ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami, 1 Fevral 2025 yil. – Toshkent: «Sciences» MChJ, 2025.

Ushbu Respublika-ilmiy masofaviy konferensiya «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» va «Raqamli O‘zbekiston - 2030» davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan vazifa – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish bilan fan sohalarini rivojlantirishga bag‘ishlab o‘tkazilgan.

Ushbu Respublika-ilmiy konferensiyasida ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan professor- o‘qituvchi va talaba-o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan ilmiy tezislarni kiritilgan bo‘lib, unda ta’lim tizimida ilg‘or zamonaviy yutuqlar, natijalar, muammolar, yechimini kutayotgan vazifalar va ilm-fantaraqqiyotining istiqboldagi rejalari tahlil qilingan.

TASHKILIY QO‘MITA

- **S.Beknazarova** - texnika fanlari doktori (Dsc), dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Audiovisual texnologiyalari kafedrasining professori, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi;

- **A.Maxmudova** - falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot instituti ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasining mudiri, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi;

- **Sh.Aktamov** – SCIENCES MCHJ rahbari, Beruniy nomidagi Davlat stipendiyasi sohibi, Toshkent axborot texnologiyalar universiteti magistranti, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi;

- **D.Gafurova** - iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktor PhD, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, menejment va marketing kafedrasining dotsenti;

- **G.Nazarova** - texnika fanlari nomzodi (Phd), dotsent, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti, Pochta aloqasi texnologiyalari kafedrasining dotsenti, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi;

Q.Xalikov - tibbiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent, Samarqand Davlat tibbiyot universiteti biologik kimyo kafedrasining mudiri, tashkiliy qo‘mita a‘zosi;

- **I.Soliyev** - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent, Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasining mudiri, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi;

- **F.Nishonov** – (Phd) dotsent, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Muhandislik kommunikatsiyalari qurilish va montaji kafedrasining mudiri;

- **L.Abduraximova** - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent tibbiyot akademiyasi, simulyatsion o'qitish kafedrasida dotsenti, Tashkiliy qo'mita a'zosi;
- **D.Abdullayev** - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Axborot xavfsizligini ta'minlash kafedrasida kata o'qituvchisi, Tashkiliy qo'mita a'zosi;
- **L.Razikova** - pedagogika fanlari nomzodi, Pedagogika va psixologiya kafedrasida dosenti. Samarqand davlat tibbiyot instituti, Tashkiliy qo'mita a'zosi;
- **N.Jo'rayeva** - fizika va matematika fanlari nomzodi, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali "Tabiiy fanlar" kafedrasida dotsenti;
- **L.Garifullina** - tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent. Davolash ishi fakulteti pediatriya kafedrasida mudiri.

To'plamga kiritilgan tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va iqtiboslarning to'g'riligiga mualliflar mas'uldir.

© Mualliflar jamoasi.
© Sciences.

PageMaker\Верстка\Sahifalovchi: Abdulaziz Ravshanov

Контакт редакций научных журналов
OOO Sciences, город Ташкент, Учтепа 14,
дом-7а.
E-mail: aktamovshohruhbekk@gmail.com
Тел: (+998-90) 973 41 23

Contact editors of scientific journals
OOO Sciences, Tashkent city, Uchtepa 14, house-7a.
E-mail: aktamovshohruhbekk@gmail.com
Tel: (+998-90) 973 41 23

Mundarija\Содержание\Content:

Ruziyeva Dilobar Isomjonovna	
Energetika sohasini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati	7
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna	
Mamlakat iqtisodiyotida energiya resurslaridan samarali foydalanish yo‘llari	9
Muminova Malika Rashidovna	
Personification then and now: its role in literature and other spheres	13
Muminova Malika Rashidovna	
The Allegory through Personification in Medieval and Early Modern Literary Works.....	16
Муллажанова Н.Г, Р.С. Холикова	
Совершенствование системы управления отходами.....	19
Джумабаев С.С, Р.С. Холикова	
Совершенствование системы управления водными ресурсами	21
Rahmonova Iroda Odilovna	
Frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish masalalari	25
Mamatkulova Xurshidabonu Anvarjon qizi	
O‘zbek tilidagi kvantitativ sinonimlarning umumiy tahlili	28
Убайдуллаев Зухриддин Ботирович	
Таълим муассасаларида бошқарув жараёнларини самарали ташкил этишнинг педагогик ёндашувлари.....	32
Madraximova Durdona Umirbekovna	
Ict terminological dictionaries	34
Мусаджанова Н.А, Р.С. Холикова	
СОХРАНЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ЭКОСИСТЕМАМИ	37
Исмоилов Д.И, Р.С. Холикова	
Развитие «чистого» (устойчивого, «зеленого») транспорта	40
Есбосынов Махмуд, Пахратдинов Алпамыс	
Суний гранит маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳақида умумий маълумот.....	43
Маматкулова Мухлиса Комилжон кизи	
Минтакавий иқтисодиёт вилоятлар мисолида.....	45
Абдалова Г.Н, Шамуратов Бегмурат Генжемуратович	
Ерёнғоқ ва унинг хусусиятлари.....	47
G.N. Abdalova, Begmurat Genjemuratovich Shamuratov	
The health benefits of peanuts and the substances they contain.....	49
Allomberganova Komila Akrom qizi	
Odam va hayvonlar fizalogiyasi	52
Арслонов Ж.Р, Р.С. Холикова	
ОРГАНИЧЕСКОЕ ЗЕМЛЕДЕЛИЕ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ	54
Музаффарова Н.М, Р.С. Холикова	
Экономическая ценность природы.....	57
Обидов М.У, Р.С. Холикова	
Развитие «зеленые» технологии в Узбекистане	60
Мусажанова Д.У, Р.С. Холикова	
ЭКОНОМИКА НОВОГО ФОРМАТА: ЦИФРОВАЯ, ИННОВАЦИОННАЯ, «ЗЕЛЕНАЯ»	63
Урманов.И.Б, Р.С. Холикова	
ЗЕЛЕНЬЙ ФАКТОР ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ.....	66
Рахматуллаев Ш.Ф, Р.С. Холикова	
Возможности и вызовы перехода на “зеленую экономику” в узбекистане.....	69
Набиев У Р, Р.С. Холикова	
ПРИНЦИПЫ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ.....	72
Askarov M.U, Р.С. Холикова	
Rivojlanayotgan jamiyatda Yashil iqtisodiyotning o‘rni	75
Нурмаганбетова Т.М, Р.С. Холиков	
Экономический механизм охраны окружающей среды	78
Камалатдинова Д.М, Р.С. Холикова	
Социальные аспекты зеленого развития национальной экономики	80
Хамроев Сухроб Рахматович	
Талабаларнинг мустақил фикрлаш компетенцияларини ривожлантириш долзарблиги.....	84
Samandarov Rahimjon Aktamo’g’li	
Raqamli to‘lov tizimlarining kengayishi: o‘zbekistonda moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlari	88

Ithom Hamroyevich Jumayev	
“Qutadgu bilig” dostonida irsoli masal she’riy san’atining qo’llanishi	91
Nazarmatova Kumush Farhodovna, R.M.Xudjayeva	
O’zbek tilida komplimentlarning o’ziga xos xususiyatlari	99
Шимбергенова А. Ж	
РАЗРАБОТКА СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ РЕМОНТОМ ПАРОГАЗОВОГО И КОТЕЛЬНОГО ОБОРУДОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО АНАЛИЗА ДАННЫХ.....	102
Актамов Шохрухбек Улуғбек ўғли	
ИНФОРМАЦИОН ХУСУСИЯТЛАР ТЎПЛАМИНИ ТАНЛАШ УСУЛЛАРИ ВА АЛГОРИТМЛАРИ ТАҲЛИЛИ.....	106
Mirzayeva Guzal	
TOSHKENT SHEVASIDA SINGARMONIZM HODISASI	115
Mahmudjonova Mehribon Xurshedovna	
EGA VAZIFASIDAGI BIR VALENTLI BIRLIKLARNING MORFOLOGIK IMKONIYATLARI..	121
Dadabayeva Shohistaxon Zakirovna	
Mirkarim osimning “to‘maris” qissasida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima.....	125

TOSHKENT SHEVASIDA SINGARMONIZM HODISASI

Mirzayeva Guzal Qobuljonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti
universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek shevalarining klassifikatsiyasiga oid qarashlar, singarmonizm saqlangan shevalar haqida olimlarning qarashlari hamda Toshkent shevasining fonetik xususiyatlari va ushbu shevada singarmonizmning qanday saqlanganiga oid fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: shevalar klassifikatsiyasi, singarmonizm, etnik guruhlar, klassifikatsiya.

Annotation: The article presents views on the classification of Uzbek dialects, the views of scholars on dialects that have preserved synharmonism, as well as opinions on the phonetic characteristics of the Tashkent dialect and how synharmonism has been preserved in this dialect.

Key words: dialect classification, synharmonism, ethnic groups, classification.

So‘nggi vaqtlarda tilshunos olimlarimiz o‘rtasida bahs va munozaralarga sabab bo‘layotgan hodisa singarmonizm haqida turli hil tushunchalar mavjud. “Nega barcha turkiy tillar singarmonizmga amal qilgan holda o‘zbek tili amal qilmaydi? Avval amal qilganmi? Qachondan boshlab singarmonizm hodisasi o‘zbek adabiy tiliga begonalashdi?”, - kabi savollar ko‘pchilik tilshunoslarni o‘ylantirayotgan savollardan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Avvalgi maqolamizda o‘zbek tilining singarmonizm hodisasi bilan aloqadorligi va tilshunoslarimizning bu boradagi fikrlari haqida ma‘lumot berib, turk tili bilan qiyoslashga harakat qilgan edik

Bu safar maqolamizda adabiy tilga asos bo‘lgan shevalarimizdan biri Toshkent shevasida singarmonizm hodisasini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Avvalo o‘zbek tilida singarmonizm bo‘lganmi, degan savolga tilshunos H.Ne‘matovning ushbu fikri javob bo‘la oladi: “Qadimgi turk tillarining yozma obidalarida unli hamda undosh tovushlar dialektikasi bir butun strukturadan iborat.

Qalin til orqa aytiluvchi unli tovushlar mustaqil bir so‘zning tarkibida qalin

talaffuzli undoshlar bilan kelishi dialektik qonun holatiga ega”. Demak o‘zbek tili ham mansub bo‘lgan holda barcha turkiy tillarda singarmonizm hodisasi mavjud bo‘lgan. O‘zbek adabiy tilidan singarmonizmning chiqib ketishiga bir muncha omillar sabab qilib ko‘rsatiladi. Bulardan biri xalqlarning aralashuvi va boshqa tillarning ta’siri hamda ba’zi siyosiy masalalar. Fikrimizni olim Sh.Shoabdurahmonovning quyida aytgan gaplari isbotlaydi: “Shuni ham aytish kerakki, o‘z vaqtida umumo‘zbek tilining asosi qilib to‘qqiz unlili singarmonistik shevalar olingan edi. O‘zbek yozuvi lotinlashtirilgan alfavitga o‘tganda esa (1929-yil), adabiy til normasi qilib, kelasi zamon janubiy-xorazm formasi -ajak (kelajak, borajak) va hozirgi zamon qipchoq formasi – yatir (kelayatir, borayatir) adabiy til normasi qilib olingan edi. Biroq singarmonizmdan va morfologiyaga kirib qolgan ba’zi bir formalardan voz kechish, tarixan umumo‘zbek adabiy tilining rivojlanishida ustun bo‘lgan o‘zbek shahar shevalariga tayanish adabiy tilning manbalarini to‘g‘ri aniqlashga yordam berdi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent-Farg‘ona shevalari asosida shakllandi”.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatining ba’zi hududlari shevalari olimlar tomonidan o‘rganilgan. R.Reshetov tomonidan Toshkent viloyatining Qurama shevalari, Sh.Afzalov tomonidan Parkent shevasi, Y.G‘ulomov, K.N.Nazarovlar tomonidan Bo‘stonliq tumani shevasi, N.S.G‘afurova tomonidan Niyozboshi shevasi, Sodiqov tomonidan Toshkent viloyati shevalari leksikasi hamda Sh.Shoabdurahmonov, E.D.Polivanovlar tomonidan ham Toshkent shevalari fonetik va morfologik jihatdan tadqiq qilingan. Sh.Shoabdurahmonov o‘zining “O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida shunday deydi: “Dialektologik jihatdan Toshkent shevasi ham yetarli darajada o‘rganilmagan. Holbuki, Toshkentning tarixiy o‘tmishi va konkret til materiallari bu shevaning faqat qardosh turkiy urug‘-qabila birliklari bilangina emas, balki qardosh bo‘lmagan etnik elementlar bilan ham munosabatda bo‘lib, murakkab til protseslarini boshdan kechirganligidan umumo‘zbek talaffuzi vujudga kelish tarixida muhim rol o‘ynaganligidan dalolat beradi”.

Bizga ma’lumki, singarmonizmning hosil bo‘lishida unlilar va undoshlar oppozitsiyasi, muhim rol o‘ynaydi. Olim H.Ne’matov o‘zbek tilidagi unlilar haqida shunday deydi: “Hozirgi o‘zbek adabiy tili fonologik sistemasida

unlilarda lablanganlik=lablanmaganlik, tor=o'rta=keng lik belgilarigina ma'no farqlash vazifasiga ega. Qolgan barcha farqlar (chunonchi, qattiq=yumshoqlik, cho'ziq=qisqalik, aniqlik=qisqarganlik va h.) bu fonemalar uchun ahamiyatsiz, fonologik qimmatsizdir. Shuning uchun nutqimizda u, o', i, a tovushlari qattiq ko'rinishda ham (chunonchi, qo'l, qul, qari, buzuq, qo'riq va h.k.), yumshoq ko'rinishda ham (chunonchi, qo'l, qul, gil, katak, ko'zgu, bitik va h.k.) chiqa oladi, nutqda, ayniqsa nazmda, cho'ziqlik va qisqalik xususiyatlariga ega bo'la oladi. Demak, o'zbek tilidagi unlilarda ko'p jihatdan oppozitsiya yo'qolgan va bu o'z navbatida singarmonizmning yo'qolishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmagan.

V.V.Reshetov o'zining maqolasida o'zbek shevalarining klassifikatsiyasi masalasiga to'htalar ekan, E.D.Polivanovning o'zbek shevalarini o'rganish jarayonida ikki holatni hisobga olganini, ulardan birinchisi, metisatsiya, ya'ni qardosh tillarning aralashuvi, ikkinchisi esa gibridizatsiya, qardosh bo'lmagan tillarning aralashuvi, ekanini aytib o'tadi. E.D.Polivanov shahar tipidagi shevalarda yuz bergan barcha fonetik o'zgarishlarni turkiy bo'lmagan etnik guruhlar ta'siri (ya'ni substrat ta'siri) bilan izohlagan holda, ularni ikki katta guruhga: eronlashgan va eronlashmagan shevalar guruhiga ajratadi. Demak o'zbek tilidagi ko'pgina shevalarga eron talaffuzi ta'siri ko'chgan. Olim shuningdek, Buxoro-Samarqand-Xo'jand tipidagi shevalarni maksimal eronlashgan deb ko'rsatsa, Farg'onaning singarmonizmli qishloq shevalarida esa eron fonologik sistemasining minimum saqlanganini aytadi. Demak, asos shevalarimizdan biri Farg'onaning ba'zi qishloqlarida singarmonizm saqlangan, bu esa o'z navbatida adabiy tilimizda ham to'liq bo'lmasa-da ma'lum ma'noda singarmozimning borligini ko'rsatadi. Chunki adabiy tilimizga morfologik jihatdan Farg'ona shevasi asos qilib olingan.

Tilshunos olim K.K.Yudaxin esa ayrim o'zbek shevalarini o'rganadi va ularni qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan aloqasini aniqlash natijasida o'zbek shevalari klassifikatsiyasini ikki guruhini tavsiya etadi. U o'z klassifikatsiyasining boshlang'ich variantida tojik tili bilan bo'lgan munosabatlarga va singarmonizmning saqlanish darajasiga ko'ra, o'zbek shevalarini to'rt guruhga ajratadi: 1. Asl turkiy tovush sistemasi va singarmonizmni saqlagan o'zbek shevalari; 2. O'zbek va tojik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari (Samarqand, Buhoro kabi shahar shevalari). Olimning shevalarga oid ishidan ko'rish mumkinki demak o'zbek shevalarining

ma'lum qismida singarmonizm saqlab qolingan.

Toshkent shevasi o'rganilgan ishlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, olim Sh.Afzalovning Parkent shevasi tadqiq qilingan dissertatsiyasi diqqatimizni tortdi. Bilamizki, til har doim rivojlanishda bo'lgani uchun hattoki o'n yil ichida ham bir til yoki shevada anchagina o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin. 1962-63 yillarda tadqiq qilingan bir shevaning bugunga kelib ma'lum o'zgarishlarga uchrashi muhaqqaq. Aytishimiz mumkinki, Toshkent shevalari orasida Parkent shevasida singarmonizm yaxshigina saqlangan. Masalan: bola – bala, opa- apa (Parkent shevasida ko'pincha onaga nisbatan apa so'zi, opaga nisbatan apcha so'zi qo'llanadi), oftob-aptav, koptok-kaptav, ota-ada, kelinoyi – kennayi kabi ot so'z turkumiga hos so'zlarda hamda fe'lning hozirgi zamon shaklining -vat bilan yasalishini ko'rishimiz mumkin: kelyapman-kevattim, boryapman-borvattim kabi. Parkent shevasida “a”lashish mavjudligini ko'rish mumkin hamda eski turkiy tildagi bala so'zi Parkent shevasida saqlanib qolgan. Parkent shevasida i harfining ikta ottenkasi mavjud bo'lib, bular old qator i va orqa qator ы tovushlaridir. Ular so'zlarda bir- biriga oppozitsiya hosil qiladi. Buni Toshkent shahar shevasida ham ko'rishimiz mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Parkent tumani aholisi o'rtasida 2000-yilgacha tug'ilganlar va undan keyin tug'ilgan avlod o'rtasidagi shevada kattagina farqni ko'rish mumkin. Chunki 2000 yildan keyin tug'ilgan yoshlar asosan Toshkent shahri shevasiga yaqin shevada muloqot qiladilar. Kevattim emas kevomman, apa emas ona yoki oyi kabi.

Albatta olim Sh.Afzalovning ishida keltirilgan ko'plab so'zlar hozirgi kunda ham Parkent shevasida qo'llanib kelinmoqda.

N.G'afurova esa o'zining maqolasida Toshkent viloyati hududiga kiruvchi Niyozboshi shevasi haqida shunday deydi: “Niyozboshi shevasi o'zbek tilining “y”lovchi shevalari gruppasiga kiradi. Shevada unlilarning garmoniyasi juda kuchsiz. Shunga ko'ra, xususan, egalik va kelishik qo'shimchalarining qo'llanishi jihatidan Toshkent shevasiga o'xshaydi”. Olima shuningdek Niyozboshi shevasida egalik qo'shimchalarining qo'llanilishi asosan adabiy tilga mos kelishini, biroq ko'plikda Toshkent shevasiga o'hshashini misollar orqali izohlaydi: “Shevada birinchi shaxs ko'plikdagi – мыз, - мыза formalari asosan katta yoshdagilar (qariyalar) tilida uchrab – uz, - uza formalari esa deyarli maktab yoshdagi bolalar tilida uchraydi. Bu jihatdan Niyozboshi shevasi Toshkent shevasiga o'hshab ketadi.

I shaxs ko‘plik formasi -mize, – мыз ga nisbatan kam qo‘llanadi. Shevadagi umumiy shakl – мыз dir”.

Olim Sh.Shoabdurahmonov o‘zining o‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari bo‘yicha yozilgan doktorlik dissertatsiyasida adabiy tilga asos bo‘lgan tayanch shevalar Toshkent va Farg‘ona shevalarini ancha keng yoritgan. Olimning dissertatsiyasida ushbu shevalardagi unlilar, undoshlar va tovuch o‘zgarishlari keng yoritiladi. Hususan Toshkent shevasiga eron shevalarining ta’siri kuchli ekanini ta’kidlaydi. Toshkent shevasida oltita unli bor ekanini va ularning oppozitsiyasi mavjuda emasligini misollar orqali ko‘rsatadi. Biroq olimning bu fikriga qo‘shila olmaymiz, chunki Toshkent shevasi unlilari oltitadan ko‘p. Bu haqda yuqorida ham i unlisining qalin variantini keltirib o‘tdik. Shevaning “o”lashish hususiyati haqida esa shunday deydi: “o-lash hodisasi o‘zbek shevalarida ikki xil yo‘sinda yuzaga kelgan. 1. Lab-lab [v] tovushi ta’sirida, masalan: Toshk. borsomyz-borsovuz-borsouz, boramiz-borovuz-borovuza. 2. Chuqur til orqa [q, g‘, x] tovushlari ta’sirida, masalan: Toshk. Taroq- taro, qishloq-qyshlo. Shu bilan birga [m, n, ng, r, l] tovushlarining ham o-lashning paydo bo‘lishida ma’lum roli bor.

Toshkent shevasidagi ushbu o-lashish hususiyati aslida labial singarmonizm hisoblanadi. Toshkent shahrining shevalari hududlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Shaharning ba’zi hududlarida labial singarmonizm hodisasi kuchliroq aks etadi. Masalan: qoshiq – qoshu, o‘rik-o‘ru, bordik – bordu kabi.

Shuningdek olim Sh.Shoabdurahmonov tayanch shevalardagi unlilarning bir-biriga mos kelishi haqida shunday deydi: “Shevalararo unlilarning bir-biriga mos kelishi muntazam bo‘lmasa ham, har holda uchraydi. Bu bilan biror shevadagi unli o‘rnida ikkinchi shevada shunga mos unlining ma’lum darajada saqlanganligini ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Toshk.: chopon, bozor, mozor, somon, qozon, tovog‘, qovog‘, bulog‘, tomog‘”.Demak olimning ishlaridan ham ko‘rish mumkinki, Toshkent shahri shevalarida labial singarmonizm qisman bo‘lsa-da saqlangan.

Yoqorida Toshkent shevasi haqidagi tadqiqotlarni ko‘zdan kechirish va ushbu hududda yashab kelayotgan tilshunos sifatida aytishimiz mumkinki, Toshkent shahri va viloyati hududlarida singarmonizm to‘liq bo‘lmasa-da qisman saqlangan. Parkent shevasida ko‘proq palatal singarmonizmni uchratgan bo‘lsak, Toshkent

shahri shevasining ko‘plab hududlarida labial singarmonizm saqlanganini ko‘rish mumkin. Bunga shahar shevasidagi o-lashish ham misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarihiy fonetikasi. Toshkent, “Ijod” nashriyot uyi, - 2006.

2.Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tilining shevalarga muosabati masalasi// O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – 1960. - №1. - B. 49-50.

3.Решетов В.В., К вопросу о термине "Курама" и кураминтсах, бюллетень АН УзССР, 5, Ташкент, 1945.

4.Афзалов Ш. Паркентский говор узбекского языка: Автореф. ... дис. канд. филол. наук. - Ташкент, 1953.

5.G‘ulomov Y., Nazarov K.N. O‘zbek tilining Bo‘stonliq rayon shevasi. Научные труды САГУ, вип.260, Серия языкознания, Ташкент, 1964.

6.Gafurova N.S. O‘zbek tilining Niyozboshi shevasi. O‘zDMG, Toshkent, 1961. B.251-273.

7.Sodiqov T. Toshkent oblasti shevalari leksikasi: Filol. fanlari nomzodi ... dis. - Toshkent, 1968.

“Ilm - fan va innovatsion yutuqlarni rivojlantirishning dolzarb muammolari”

13-son

Mas’ul muharrir: Aktamov Shohruhbeq Ulug’bek o’g’li

Musahhih: Ravshanova Ro’zigul Karim qizi

Sahifalovchi: Ravshanov Abdulaziz Karim o’g’li

E’lon qilish muddati: **01.01.2025**

Контакт редакций научных журналов ООО
Sciences, город Ташкент, Учтепа 14, дом-7а.
E-mail:aktamovshohrubekk@gmail.com

Тел: (+998-90) 973 41 23

Contact editors of scientific journals
OOO Sciences, Tashkent city, Uchtepa 14,
house-7a.

E-mail:aktamovshohrubekk@gmail.com

Tel: (+998-90) 973 41 23